

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR.

Namangan davlat universiteti.

Ijtimoiy fanlar fkulteti .

Tarix yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o`g`li.

E.-mail:muhammadiyevbilol@05gmail.com.

Tel: 998957707796.

Annostatsiya: Ushbu maqolada shoh va shoir yetuk sarkarda Zaxriddin Muhammad Boburning yoshlik davri, Samarqanda taxti uchun kurashlari, Shayboniylar bilan olib borgan janglari va Kobul va Hindiston sari yurishlari haqida ma`lumot beriladi.

**Kalit so`zlar:** Andijon, Boysung`ur, Samarqand qamali, Ahmad Tanbal, Jahongir mirzo, Shayboniyxon, Xo`jand, Suton Ali mirzo, Ismoil Safaviy, Ibrohim Lodiy, Panipat jangi.

Temuriylarni so`ngi hukmdori bo`lgan Zahiriddin Muhammad Bobur og`ir siyosiy vaziyatda hokimyatga keldi. Bu davrda temuriylar davlatini boshqarib turgan Abu Saidnig farzandlari mamlakatning inqiroz sari olib bormoqda edi. Sulton Ali Mirzoning volidasi Zuhrabegim og`a kaltabinligi sabab Shayboniyxonga Samarqand taxtini topshirib qo`ydi. Bobur Mirzo bir necha bor bobosi taxtini qaytarib olishga harakat qilsada lekin bu yo`ldagi harakatlari besamar ketdi. Shunday bo`lsada Hindiston sari borib u yerda buyuk davlat tuzdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Umar Shayx Mirzoning katta o`g`li bo`lib, 1483-yil fevral oyida Anijonda tug`ulgan. Yoshlik davri asosan Andijon va Axsi shaharlarida o`tdi. U otasi saroyida ham manaviy ham harbiy ilmlarni chuqur o`rgandi. Andijon ilm- marifatda Samarqanga tenglasha olmasada Umarshayx Mirzo akasi Ahmad Mirzoga taqlid qilib Andijonda o`z saroyida ko`plab olim-u ulomlarni yiqqan edi. Umarshayx Mirzo 1494-yilda vafot etgach shu yilning 10 -iyunda seshanba kuni hali

balog`atga yetmagan 12 yoshli Bobur Mirzo Farg`ona taxtiga chiqdi. Farg`ona taxti uchun kurashga kirishgan Bobur Mirzoni amakisi Ahmad Mirzo Quva shahrida Andijon qasdida turganligi. Ikkinchi tomondan Bobur Mirzoning tog`asi Toshkent hokimi Sulton Muhammad Kosonni zabt etganligi, uchinchi tomonda esa Qoshg`ar xoni Abubakir dug`lot o`z qo`shini bilan Farg`ona ulusiga bostirib kelib, O`zgandni o`rab olgani haqida xabarlarini eshitgan Bobur Mirzo uning beklari va amaldorlari o`z mustaqiligini saqlab qolish yo`lida qo`ldan kelgan barcha chora-tadbirlarni ishga soldilar. Jumladan Bobur Mirzoni mavrusiy hukumdor etib tayinlashni Sulton Ahmad Mirzodan talab qilgan holda Xoja Qozi va Uzun Hasanni elchi qilib yubordilar. Talabnoma bilan birga Bobur Mirzoni maktubining ham olib borishgan. Maktubida Bobur Mirzo amakisiga ham mulozm ham farzan ekanligini, agar Farg`ona hokimligini unga berishsa yaxshi bo`lishini yozgan edi. Sulton Ahmadning beklari buni qabul qilmadi va Boburga qarshi hujumga o`tdilar. Quvani botqoq qorasuvidan faqat ko`prik orqali o`tish mumkin edi, ammo minglab otliqlarni ko`tara olmay qulab tushdi. Bundan tashqari otlar orasida o`lat tarqaldi ko`plab otlar o`lib qoldi, askarlar orasida sarosima paydo bo`lib chekindilar. Sulton Ahmad sulh tuzishga majbur bo`ldi. Farg`ona beklari qolgan ikki dushmanga qarshi kurashib ularni hujumlarini qaytarib qolishdi.[1.-B 217-220].

Shu tariqa ikki yil o`tdi Samarqand taxtida Sulton Ahmadning o`limidan so`ng (1494-yil) ukasi Sulton Mahmud, uning o`g`lilari Boysung`ur va Sulton Ali Mirzolar boshqardi. 1497-yillari Mirzo Bobur Samarqand taxti uchun kurashga kirishdi. Shahar tashqarisidagi bir necha janglardan so`ng Bobur Mirzo qo`shinlari Samarqand qalasi xandaxlari atroflarigacha kelishdi. Qish yaqinlashib qolgach Bobur Mirzo kengash chaqirib qishlov masalasini ko`rib chiqib o`zi Xo`ja Diydor qo`rg`onini tanladi. Bu maxalda Boysung`ur Mirzo ko`plab elchilarni ketma- ket Turkustondagi Shayboniyxon huzuriga yuborib undan yordam umid qildi. Shayboniyxon ko`p o`tmasdan Samarqandga yetib keldi. Bobur Mirzo turgan joyga kelib tushdi, Bobur Mirzoni qo`shini bu paytda qishlash uchun Raboti Xo`jaga, bir qismi Kobudga bazilari esa Sheroz qo`rg`oniga ketgan edi. Bobur Mirzo bor qo`shini bilan Shayboniyxon

qarshisiga chiqdi. Shayboniyxon Samarqand sari yura boshladi. Boysung`ur Shayboniyxon bilan muomilasi yaxshi bo`lmadi. Bir necha Kundan so`ng Shayboniyxon ortiga qaytib ketdi. Shundan so`ng yeti oy davomida qamalda qolgan Boysung`ur Shayboniyxondan yordam olaolmagach ikki-uch yuz kishi bilan Qundizga Xisravshoh huzuriga ketgan. Shu tariqa Bobur Mirzo Samarqand taxtiga birinchi bor chiqdi.

Samarqand olingan payt juda xarob xolatda edi. Askarlari ozuqasi tugagach birin ketin Andijon sari qocha boshlashdi. Xonquli Bayonquli, Ibrohim Bekchik va Ahmad Tanballar qochgach Andijon va Axsi taxtiga Bobur Mirzoni ukasi Jahongir Mirzoni qo`ymoqchi bo`lishdi. Bu paytda Bobur Mirzoni tobi qochgan axvoli juda yomon edi. U bilan qolgan kishilar paxta bilan uning og`ziga suv tomizib turishgan. Bobur Mirzoni onasi bir necha bor maktublar yo`llab unda Bobur Mirzoni Andijonga qaytishini so`ragan. Bu payta Bobur bilan qolgan kishilar soni ming kishi atrofida edi. Xo`jandga yetganlarida Andijoni fitnachilar qo`lga kiritadilar. Bobur Mirzo bilan qolgan beklarni ko`pini mulki Andijonda edi. Ular ham Bobur Mirzoni tark etdilar. Bobur bilan faqat ikki yuzdan ko`proq kishi qoldi. Xo`jandda turganida Boburni onasi va buvisi u bilan qolganlarni ko`chkisi bu yerga yuborildi. Dastlab Samarqandga qaytgan Bobur Shayboniyxon tomonidan Sheroz egalanganini eshitib yana Xo`jandga qaytib, yordam so`rab Toshkentga xon huzuriga keladi. Xon unga Ayub Bekchik va Jon Hasani yetti - sakkiz yuz askar bilan Boburga ko`makka beradi.

Andijon taxti uchun birinchi, qorong`i tunda Nasux qo`rg`onini eglaydilar. Ammo askarlari kamligi sabab bu yerni tshlab yana Xo`jandga keldi. Shu yerlarda sarson -sargardon bo`lib yurgan paytlari Ali Do`st to`oyni navkari Yo`lchiq kelib Bobur Mirzoga, Ali Do`st Marg`inondi berishini, o`rtadagi kelishmovchiliklar sabab Bobur Mirzodan kechirim so`ragani aytadi. Bobur Mirzo Marg`inonga yetib kelib uni egaladi. Ahmad tanbal va Uzun Husainlar Marg`non tomon qo`shin tortadi. Bir necha urunushlardan so`ng Bobur Mirzo 1499-yilda Andijoni egallab qayta taxtga o`tirdi.[2.- B 66]

Bobur Mirzoning Andijon voqialarini bostirish uchun Samarqandni tashlab chiqanidan foydalangan Buxorodagi Sulton Ali Mirzo Samarqand taxtini egalab olidi. Bu paytda katta qo'shin to'plagan Shayboniyxon Samarqand va Buxoro tomonga qo'shin tortib keldi. Samarqand taxtini Ali Mirzoning onasi Zuxrabegim og'o xatosi bilan egalagan Shayboniyxon Samarqand va Buxoro xalqiga og'ir zulimlar o'tkazdi. Shayboniyxondi Samarqand taxtini egalaganligi haqidagi mish-mishlar Bobur Mirzoni saroyiga yetgach g'azablanib Samarqand sari jo'naydi. Dastlab Kesh qal'asiga keladi. Shu yerda Samarqandni fath etishga bashorat qiluvchi tush ko'radi. Samarqandga kelganda Shayboniyxon yetti-sakkiz ming askari bilan shahar tashqarisidagi Diydor qalasida turar edi. Samarqanda esa Shayboniyxondi noibi Jonvafo Mirzo esa olti yuzga yaqin o'zbek askarlari bilan qolgan edi. O'zbek askarlariga nisbatan Bobur Mirzoning qo'shini kam sonli bo'lsada xudoga tavakal qilib ikki yuz qirq nafar askari bilan Samarqandni egallashga muyassar bo'ldi. Samarqandga kirib olgach besh yuz nafarga yaqin o'zbek xizmatchilari o'ldirildi. Axolidan kimni kuchi yetsa dushmani o'ldirdi va mollari tortib olindi. Shundan so'ng Bobur Mirzo va Shayboniyxon o'rtasida bir necha bor to'qnashuvlar bo'lib o'tdi, ammo son jihatdan ustinlik va Bobur Mirzoga yordam kuchlari kelmagach Samarqandga kirib mudofaga o'tdi. Mudofadagilar vaqt o'tgan sari qiyind ahvolga tushib qolishdi. Ozuq- ovqat taqchiligi vujudga keldi. Ba'zilar Shayboniyxonga borib qo'shila boshladi. Shunday sharoitda Bobur Mirzo odamlar yegulik yo'qligidan ko'plab xarom ishlarni amalga oshirayotgani va ochlik sabab axoliga zulim o'tkazilsa ular dushman tomonga o'tib ketishi yoki taslim bo'lishi mumkinligini anglagan Bobur Mirzo o'zi bilan yuzga yaqin yaqinlarini olib qorong'u tunda Samarqandni tark etdi.[3.-B145]

Bobur Temuriylar saltanatini himoya qilish va uni saqlab qolish uchun astoydil harakat qilib, Shayboniyxonga qarshi bir necha yil davomida muttasil kurash olib borsa-da, ammo mamlakatda hukm surgan og'ir iqtisodiy tanglik va siyosiy parokandalik sharoitida maqsadiga erisha olmaydi. 1503-yili Toshkent xoni Mahmudxon, Bobur va qalmoqlarning birlashgan qo'shini Shayboniyxon tomonidan Sirdaryo bo'yida tor-mor qilinadi. Bobur Samarqand taxti uchun

kurashayotgan paytda Andijonni Sulton Ahmad Tanbal egallab oladi. 1501–1504-yillarda Bobur Farg‘ona mulkini qaytarib olish uchun Sulton Ahmad Tanbal, Jahongir mirzolarga qarshi olib borgan kurashi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Temuriylarning to‘xtovsiz janglari va og‘ir soliqlardan toliqqan xalq Boburni qo‘llamadi va u Movarounnahrni tark etishga (1504-yil iyun) majbur bo‘ladi. Bobur 200-300 kishilik navkari bilan Hisor tog‘lari orqali Afg‘onistonga o‘tadi va u yerdagi ichki nizolardan foydalanib G‘azna va Kobulni egallaydi. Shayboniylarning tobora kuchayib borayotgan yurishiga qarshi birgalikda chora ko‘rish masalasida Sulton Husayn Boyqaro barcha temuriy hukmdorlar qatorida Boburni ham maslahat yig‘iniga maxsus taklif etishi anashunday yuksak nufuzni ko‘rsatuvchi dalildir. Bobur shoh Ismoil bilan harbiy-siyosiy ittfoq tuzib, 1511-yil boshida Hisorni, yozida Buxoroni, oktabir boshida esa Samarqandni yana qo‘lga kiritadi. Boburning shia yoinaldshiagi eroniylar ra‘yi bilan ish tutishi aholida norozilik tug‘diradi. 1512-yil 28-aprelda Ko‘li Malik jangida Ubaydullo sulton boshliq shayboniylardan yengilgan.[5]

1519- yildan Shimoli-G‘arbiy Hindustonga yurishlar qildi va 1525-yilda Dehliga qo‘shin tortdi. 1526-yil aprelda Panipat jangida Ibrohim Lodiyni qo‘shinini yengib Dehlini egaladi. Bu jangda Bobur qo‘shinlari soni o‘n ikki ming, Ibrohim Lodiyniki esa yuz ming kishi bo‘gani haqida ma‘limotlar bor. 1527-yil Sikra jangida Rajiput rojasi Sangram singh qo‘shiniga qaqsatqich zarba berdi. 1529-yilda Bobur tuzgan davlat hududi Sarqiy Afg‘oniston, Panjob va Ganga vodiysidan Bengaliyagacha bo‘lgan.[4.-B 528].

Zaxriddn Muhammad Bobur 1530- yilda omonatini topshirdi. U hayot yo‘lini bir kitob qilib yozdi. “Boburnoma”.Bobur vafot etgach uning to‘ng‘ich farzandi Humoyin taxtga o‘tirdi va otasing siyosatini davom etirdi.

Xulosa qiladigan bo‘sak Bobur Mirzo Temuriylarni davlatini so‘ngi davirlari yani qulash davirlarda hukumronligi to‘rg‘i kelgani uchun ko‘plab urushlarda qatnashdi. Shayboniixon Movarounnahrni egalaydigan maxalda hech bir kuch unga qarshi chiqa

olmagan bir paytda Bobur Mirzo u bilan kurashdi. Ikkiyuz qirqta askari bilan o`zlaridan bir necha bor ko`p bo`lgan o`zbek askarlariga qarshi chiqib, Samarqandni ham egaladi. Bobur Mirzoga o`z yaqinlari ham harbiy yordam ko`rsatmadi, bir necha bor qo`shni hududlarga yordam so`rab yuborgan elchilari, va maktublari natija bermadi. Harbiy kuch ustunligi va tajriba Shayboniyxondi g`alabasini taminladi. Shunday bo`lsada Bobur, Ismoil Safaviy bilan itfoq tuzub Samarqand taxtini qaytarib oldi lekin, xalq shiya mazhabidagi hukumor madadiga tayangani uchun qo`lab - quvatlamdi. Ilojsizlikdan Afg`onistonga o`tib davlat tuzdi keyinchalik Hindistoda butun dunyoga malum va mashxur “Boburiylar imperyasi”ga asos soldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Т. Файзиев. Темурийлар шажараси – Тошкент: “Ёзувчи” наширёти – хазина. 1995. 184 б.
2. З.М. Бобур. Бобурнома- Тошкент: “О`qutuvchi” наширёт-матбаа ижодий уйи.2008.228 б.
3. . Гийосиддн бин Хумомиддир Хондамир. Хабиб ус- сийар фи ахбори афроди башар-Тошкент: “ SHARQ” наширйот-матбаа алциядорлик компаняси бош тахриряти.2011. 304 б.
4. Ш. Воҳидовб. А.Қодировю. Шарқнинг машхур сулолалари- Тошкент: Akademknashr, 2013. - 624 б.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bobur>